

PRESS-RELIZ**2021-2027 yillar uchun yangi Erasmus+ dasturi**

2021 yil 25 mart kuni Yevropa Komissiyasi tomonidan 2021-2027 yillarda Erasmus+ birinchi yillik dasturini qabul qildi.

Dastur byudjeti 26,2 milliard yevroni (2014-2020 yillarda - 14,7 milliard yevro ajratilgan), Yevropa Ittifoqining tashqi vositalaridan taxminan 2,2 milliard yevroni tashkil etadi. Yangi dastur yanada keng qamrovli, "yashil" va raqamli texnologiyalarga o'tishda yordam beradi. Erasmus+ pandemiya davrida o'qish va ta'lim tizimlarining barqarorligini qo'llab-quvvatlaydi.

Yangi Erasmus+ dasturi (2021-2027) chet elda o'qish, stajirovka, ishlab chiqarish amaliyotini o'tash va akademik xodim va o'qituvchilararo almashinuv, yoshlar va sport kabi barcha sohalarida bilim almashish uchun imkoniyatlar yaratadi.

2021 yilda O'zbekiston oliy ta'lim muassasalari Erasmus+ dasturining quyidagi yo'nalishlar bo'yicha ishtirok etish imkoniyati mavjud:

Key Action 2: **Erasmus Mundus Action - Loyihalarni topshirish muddati: 26 may 2021**

Lot 1: Erasmus Mundus Joint Masters (EMJM)

Lot 2: Erasmus Mundus Design Measures (EMDM)

Key Action 3: **Jean Monnet Actions - Loyihalarni topshirish muddati: 2 iyun 2021**

Tadbirning maqsadlari:

- 2021-2027 yillar uchun yangi Erasmus+ dasturining imkoniyatlari, Yevropa universitetlari bilan hamkorlikda O'zbekiston oliy ta'lim muassasalari uchun ochiq bo'lgan ma'lumotlarni taqdim etish.
- Erasmus Mundus va Jean Monnet dasturlarining yangiliklari hamda loyiha takliflarini ishlab chiqish bo'yicha amaliy tavsiyalar berish.
- "Erasmus+ CBHE loyihalarining O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limni rivojlantirish va modernizatsiya qilish bo'yicha loyihalar ta'siri" milliy hisobotining natijalarini taqdim etish.
- OTMlarning Xalqaro bo'limlarning salohiyatini mustahkamlash va yangi Erasmus+ dasturi bo'yicha tavsiyalar va 2021 yil uchun tegishli tanlovlarni bo'yicha tavsiyalar berish

Tashkilotchilar: Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Erasmus+ milliy ofisi (NEO), Oliy ta'lim bo'yicha ekspertlar Milliy guruhi (HEREs)

Ishtirokchilar: Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Oliy ta'lim muassasalar Xalqaro aloqalar bo'limlari vakillari, O'zbekistondagi Yevropa Ittifoqi Delegatsiyasi va Yevropa Ittifoqiga a'zo-davlatlar elchixonalari, Innovatsion rivojlanish vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish Davlat inspeksiyasi, Erasmus+ dasturi loyihalarining jamoa a'zolari, Oliy ta'lim bo'yicha ekspertlar Milliy guruhi (HEREs)

Ma'ruzachilar: Yevropa Komissiyasining yoshlar, sport va madaniyat Bosh Direktori va Yevropa ta'limi va madaniyat bo'yicha Ijroiya Agentligi vakillari tomonidan kelgusi yetti yil mobaynida O'zbekiston oliy ta'lim muassasalari uchun mavjud bo'lgan hamkorlik imkoniyatlari Yevropa Ittifoqining eng muvaffaqiyatli va uzoq muddatli dasturlari haqida ma'ruza qiladilar.

Axborot tadbiri NEO YouTube kanali orqali to'gridan-to'g'ri efirga uzatiladi va video-yozuv joylashtiriladi:

<http://www.youtube.com/watch?v=fO7s9KEzjo4>